

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA

AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKALARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA TEXNIK SALOHIYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салоҳиддин Исматович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich

YANGI O'ZBEKİSTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVİY O'ZGARİSHLAR
DİNAMİKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENСIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoj Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Zokirova Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI 164-169

Negmatova Mumtozbegim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183*Сеитниязов Камарбек Параҳатовиҷ*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич
ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING
HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли
ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna
RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'R
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna
FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING
PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Сайдова Камола Усканбаевна
КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАҶНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ
ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович
МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna
ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND
MODERN EDUCATION 251-254

Received: 10 September 2024

Accepted: 15 September 2024

Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

FUNDAMENTALS OF PSYCHIATRIC ANALYSIS OF LITERARY TEXT

Akhmedova Aziza Komilovna,

Ph.D., Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

aziza.ahmed@inbox.ru

Abstract. The article is devoted to psychiatric analysis, one of the relatively less studied methods of literary criticism. The origin of this method, the factors that influenced its development, and the work of scientists are analyzed. In particular, the main theories of such scientists as Karl Leonhard, and V. Belyanin and the influence of their ideas on literature are highlighted. For example, Karl Leonhard justified twelve personality psychotypes, the phenomenon of accentuation, and referred to examples from fiction. Belyanin substantiated the theory that the author's accentuation affects the type of literary text and determines the genre of the work.

Keywords: psychiatric artistic analysis, psychoanalysis, psychologism, literary character

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI

Axmedova Aziza Komilovna,

f.f.f.d, Ph.D., O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqola adabiyotshunoslikning nisbatan kam o'r ganilgan metodlaridan biri, psixiatrik tahlilga bag'ishlangan. Mazkur metodning kelib chiqishi, uning rivojiga turri bo'lgan omillar, olimlarning asarlari tahlilga tortilgan. Xususan, Karl Leongard, V.Belyanin singari olimlarning asosiy nazariyalari, ilgari surgan go'yalarining adabiyotga ta'siri yoritilgan. Jumladan, Karl Leongart shaxs psixotiiplarini o'n ikki turini, aksentuatsiya hodisasini asoslab bergen va badiiy adabiyotdan misollarga ham murojaat qilgan. Belyanin esa, muallif aksentuatsiyasining badiiy matn tipiga ta'sir qilishini hamda asar janrini belgilab berishi haqidagi nazariyani asoslab bergen.

Kalit so'zlar:psixiatrik badiiy tahlil, psixanaliz, psixologizm, badiiy obraz

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N21>

Kirish. Badiiy asarlar tahlilida ruhiyat tasviri, badiiy obraz psixologizmi kabi masalalar psixologik, psixoanalitik metodlar orqali ilmiy o'r ganiladi. Adabiyotshunoslikda shuningdek, **psixiatrik** tahlil metodi ham o'z o'r niga ega. Ushbu metodning mohiyati shundaki, **psixiatriyaga** xos bilimlarni, tushunchalarni badiiy matn tahlilida, ijodkor va qahramon ruhiyatini o'r ganishda qo'llashni nazarda tutadi. Bunda, filolog olim V.Belyanin ta'biri bilan aytganda, muallifga ham, badiiy obrazga ham "tashhis qo'yiladi". Psixiatrik metodga ko'ra,

- badiiy matn (V.Belyanin);
- ijodkor shaxsi (Karl Yung, Leongart);
- badiiy qahramonlar (Karl Yung, Leongart) **tiplarga** tasniflangan.

Mazkur maqola, asosan, badiiy qahramonlarni muayyan psixotiplarga tasniflashga bag'ishlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. San'at va psixologiyaning o'zaro aloqalari haqidagi ilk ilmiy manbalardan biri L.S.Vigotskiyning "Психология искусства" [1.] asaridir. Asarda Vigotskiy jahon adabiyotining qator yorqin obrazlarini psixologik tahlil qilishga uringan, biroq ijtimoiy-madaniy omillarga ortiqcha urg'u bergenligini, ijodkor ruhiyati tahliliga o'tish "mumkin emas" deya xulosaga kelganligini tanqidiy baholash mumkin. Adabiyotshunos V.Belyanin Vigotskiyning ijodkor ruhiyati tahlilini cheklashni "antipsixologik" yondashuv deya haqli ravishda ta'kidlaydi. Zero, san'atda ijodkor-asar-badiiy obraz-kitobxon o'ziga xos bir butun muloqot tizimidir. Bugungi kunda adabiyotshunoslik nafaqat ijodkorning balki badiiy obraz va kitobxon qatlamini ham chuqr ruhiy o'rganish metod va vositalariga ega.

Adabiyotshunoslikda psixogenetik maktab 19-asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Rossiya ilm-fanida vujudga keldi. Ayonki, badiiy ijod hamda psixologiyaning yagona ibtido – ruh bilan bog'liqligi ikki sohada kashf etilgan qonuniyatlarning o'zaro ta'siri yuqori ekanligidan dalolat beradi. Yevropa adabiyotshunoslardan S. Jirarden, E. Enneken, V. Ves, rus olimlaridan D. A.A. Potebnya va N. Ovsyaniko-Kulikovskiy A. G. Gornfeld, T. Raynov, M. S. Grigorev, A.B. Esin psixologik metodning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Zigmund Freyd esa, psixoanaliz nazariyalarining badiiy adabiyotga, san'atga kirib kelishida muhim rol o'yanagan. Biroq, badiiy asarning psixiatrik tahlili an'anaviy psixologik tahlil va psixoanalizdan farq qiladi. Psixologik tahlil badiiy asarning umuman ruhiyat bilan bog'liq jihatlariga diqqat qilish bilan bog'liq bo'lsa, psixoanaliz asosan anglanmaganlik va unga tegishli tushunchalarni o'rganadi. Oxirgi yillarga psixoanaliz ruhiy jarohatlar tahliliga ahamiyat bermoqda. Inson murakkab xilqat, ruhiyat ilmining yana shunday qirralari borki, uni aynan **psixiatrik tahlil** yorita oladi. Quyida mazkur tahlil metodi haqida ma'lumot beriladi.

Muhokama. Shaxsni struktural o'rganish, uni komponentlarini, jumladan, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qiziqishlarini chuqr o'rganish insonni anglashda samarali ilmiy instrument bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi davr ilm-fani sohalarni bir-biriga yaqinlashtirish, integrallashtirish, sinergetik yondashuv tarafdori. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, psixologiya va psixiatriyaning qator ilmiy yangiliklari san'atga, adabiyotshunoslikka ham kirib kelmoqda. Jumladan, shaxsni struktural o'rganish, uni komponentlarini, jumladan, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qiziqishlarini chuqr o'rganish insonni anglashda samarali ilmiy instrument bo'lib xizmat qilmoqda. Shaxsni strukturaviy tahlil qilib, uni o'n ikki xil psixotipga tasniflagan olim Karl Leongardning adabiyot haqidagi ilmlari keng bo'lib, badiiy obrazni psixiatrik tahlil qilib bergen ilk olimlardan biri hisoblanadi. Leongardning psixotiplar va aksentuatsiya haqidagi qarashlari psixiatrik tahlil uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Nemis olimi Karl Leongard (1904-1988) badiiy obrazlarni ruhiy tiplarga tasniflashda ulkan hissa qo'shgan. "Akzentuierte Persönlichkeiten" (1968) asarida Leongard shaxslarning o'n ikki psixotipga bo'linishini asoslab bergan: Affektiv-labil /Affektiv-ekzaltatsiyali/ Qo'zg'aluvchan/Gipertim/Demonstrativ/Turg'un/Distim

/Pedant/Introvert/Vahimali/Ekzaltatsiyali/Emotiv. Ushbu asar ikki qismdan iboratdir. Ikkinchi bob badiiy obrazlarning tiplarga bo'linishiga bag'ishlangan bo'lib, jahon adabiytining Tolstoy, Dostoevskiy, Gogol, Shekspir, Servantes, Balzak, Gyote, Stendal, Lope de Vega, Valter Skot kabi o'ttizdan ortiq yozuvchilarining asarlarini tahlilga tortgan. Leongart badiiy qahramonlarni ham shartli ravishda yuqoridagi kabi tiplarga tasniflab, asarlardan keltirilgan

misollar bilan izohlab bergen. Leongardning fikricha, yozuvchilar odatda qahramonda biror ruhiy holatni tasvirlaganda “nega insonlar o’zlarini aynan shunday tutadi degan savolni ochiq qoldiradilar” [2., b.153]. “Jahon adabiyotining qator murakkab obrazlarini shaxs strukturasini tahlili orqali anglash mumkin” [2., b.150]deya qayd etadi olim. Chuqurroq mushohada qilinsa mazkur fikr Ginsburgning yuqorida keltirilgan “Insonni strukturaviy tushunish tendentsiyasining rivojlanishi tufayli psixologik tipologiya va tarixiy va madaniy tipologiya o’rtasida bog’liqlik mavjud” degan fikriga hamohang. Shaxsga strukturaviy yondashish uchga bo’linadi: psixologik, ijtimoiy va biologik. Masalan, ***shaxsning psixologik strukrurasi*** temperament, xarakter, yo’nalganlik, qobiliyat kabi turg’un xususiyatlarni o’z ichiga oladi. Insonni strukturaviy tushunish gnoseologik jihatdan sermahsul vosita ekan, badiiy obrazning ham strukturaviy tushunilishi yangi poetik talqinlarga yo’l ochadi. Zero, psixologik tahlilda qator an’anaviy tahlil metodlari badiiy obrazning ijtimoiy strukturasiga, jumladan, ijtimoiy ustakovkalari, oilaviy, sinfiy kelib chiqishi, milliy-madaniy xususiyatlariga diqqat qaratadi, biroq shaxs strukturasining temperamenti, xarakter tipi kabi tabiiiy- ruhiy komponentlar e’tibordan chetda qoladi. Nazarimizda, Leongardning badiiy obrazlarni psixotiplar kesimida tahlil qilishi adabiy qahramonning strukturaviy tahliliga yaxshi misol bo’ladi.

Leongard fanga “aksentuatsiya” (1964) terminini olib kirganligi inson ruhiyati bilan bog’liq qator holatlarni aniqlashtirdi. “Aksentuatsiya” deganda olim shaxsdagi muayyan xususiyatning me’yoridan oshib, kuchayganligini nazarda tutadi. Har bir shaxs tipi individual xususiyatlar bilan ajralib turadi. Misol uchun, diqqat markazida bo’lishga intilish demonstrativ shaxs tipi uchun, serharakat, tinib-tinchimas bo’lish gipertim uchun xos xususiyatlar. Mazkur xususiyatlar ***norma*** holatida bo’lishi, yoki meyordan oshib ***aksentuatsiyaga*** aylanishi mumkin. Aksentuatsiya ham kuchayib ketsa muayyan patologiyaga(***psixopatiyaga***) o’tib ketadi.

K.Leongard introvert shaxs tipi haqida badiiy adabiyotga murojaat qilar ekan, bunday asarlarda qahramon haddan tashqari ko’p “tafakkur qilishi”ni qayd etadi. Ulrix romanining bosh qahramoni “axloq, din, erkinlik, sevgi, baxt, ekstaz, siyosat, milliylik, liberalizm, patsifizm, jinoyat, daholik, ruhiy xastalik” haqida fikrlashini misol keltiradi K.Leongard. “Shubhasiz, doimiy va faol tafakkurga beriladigan badiiy qahramonlar introvert shaxslardir, biroq bunday xususiyatni muallifning o’ziga tegishli deyilsa, to’g’riroq bo’ladi” deya aniq ta’rif beradi.

Haqli va asosli ravishda Leongard muallifning psixologik mahoratini qahramonning hatti-harakatlarini, reaksiyasini ishonarli ruhiy asoslanganligi bilan bog’laydi. Olimning fikricha, yozuvchilarining hammasi ham ***“yaxlit shaxs strukturasini”*** yarata olmaydi. Bunda olim aynan ruhiy portretning *izchilligiga, haqqoniyligiga* urg’u beradiki, ushbu jihatlar poetikaning ilk nazariy manbasida ham qayd etilgan [3.,b.43.]. Shu nuqtai nazardan, Leongart Valter Skotning qator qahramonlarini, masalan, Ravensvud, Effi, Emil Zolyaning Nana, Balzakning Juli va boshqa badiiy obrazlardagi ruhiy nomutanosiblikni, asoslanmagan o’zgarishlarni, izchil bo’lmagan xarakter xususiyatlarini tahlilga tortadi. Yozuvchilar, Leongardning qarashicha, biror xususiyat bilan ajralib turmaydigan tiplarni ham yaratishi mumkin, masalan, L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida hayotda ko’p uchraydigan, tipik ko’p farzandli ona—Dolli, tipik sovuqqon amaldor — Karenin obrazlarini taqdim etgan. Shuningdek, biror fe’l xususiyatini mubolag’ alashtirib aksentuant obrazlarni yaratgan adiblar ham talaygina. L.Tolstoyning yuqorida keltirilgan asarida ikkita ***aksentuant obraz*** mavjud: biri Stepan Oblonskiy bo’lsa, ikkinchisi Vasenka Veselovskiy, ularning har ikkisida tasvirlangan

quvnoqlik, hazilkashlik, sarguzashtparastlik gipomaniyakallik aksentuatsiyasiga yaqin. Jalon adabiyotining yorqin obrazlaridan Otelloda paranoyal aksentuatsiya namoyonligini ta'kidlaydi olim. Bu obrazda qiyofasida paranoyallarga xos shubhakorlik, izzattalablik, tajavvuzkorlik bo'rtib turadi. Gi de Mopassanning qahramoni Paranning ("Paran" novellasi) ruhiy qiyofasi vahimali aksentuatsiyaning yorqin namunasi. Muallif kichik epizodlar ketma-ketligida Paranning doimiy halovatsizligini, biror baxtsizlik bo'lib qolishidan xavotirlanib yashashini sinchkovlik bilan tasvirlaydi. Aksentuatsiyaning inson hayotiga salbiy ta'siri asar qahramonining taqdirida yaqqol aks etgan. Emotiv aksentuatsiyaga xos yumshoqfe'lllik, hassoslikni Gyotening Egmont obrazi xarakteristikasi misolida tahlil qilingan. Aksentuant obrazlar yaratish bo'yicha Dostoevskiy va Ieremiy Gotxelf kabi yozuvchilar ancha faol bo'lganliklarini yozadi Leongard.

Natijalar. Karl Leongartning nazariyalari keyinchalik boshqa fan tarmoqlarida ham jiddiy qiziqish uyg'otdi, yangi g'oyalarning tug'ilashiga zamin hozirladi. Psixolingvistika, psixiatrik adabiyotshunoslik asoschilaridan biri, Valeriy Belyanin [4.] ham Leongart kabi shaxs psixotiplarining ijodga ta'siriga, ***badiiy olam tasvirida muallifning ruhiy shaxs tipi, aksentuatsiyasi*** muhim omil ekanligiga ishonadi. Belyanin tadqiqotida ijodkor shaxs tipidan kelib chiqib, badiiy matnlar ham shakl va mazmun jihatdan farqli olti tipga bo'linishini aniqlagan. Belyaninning fikricha, badiiy matn ***hissiy-ma'noviy dominantadan*** kelib chiqib "yorug", "qora", "g'amgin", "quvnoq" va "chiroyli kabi tiplarga bo'linadi. Belyanin shaxs psixotipi nafaqat badiiy matn yaralishida, balki uni tanlashda ham jiddiy rol o'ynashi haqidagi fikrni ilgari surar ekan reseptiv estetika uchun sermahsul g'oyalarni taklif etadi. Jumladan, epileptoid aksentuatsiyasidagi yozuvchi "qora", depressiv aksentuatsiyali ijodkorlar "g'amgin", gipomaniakal aksentuatsiya "quvnoq" badiiy matnlarni yaratishini Belyanin jahon adabiyotining turli namunalari misolida dalillab beradi. E'tiborga sazovor jihat shundaki, olim badiiy obrazlarga misollar manbasi sifatida turli janr va adabiy turlarga murojaat etadi. Masalan, "Myunxauzenning sarguzashtlari" asari "quvnoq", Aka-uka Grimlar ertaklari, Lyuis Kerrolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asari "qora" matnlarga kirishi mualliflarning ijod jarayonidagi ruhiy holatidan, aniqrog'i hissiy-ma'noviy dominantadan kelib chiqqan. Matnlar tipologiyasini olim har bir tipning semantik komponentlari tahlili orqali isbotlab bergen. Shaxs tiplarining istiqbolda yana tadqiq etilishi, shuningdek, turli tipga oid matnlarning kombinatsiyada uchrashi yana yangi badiiy matn tiplari kashfiyatiga asos bo'lishiga Belyanin ishonch bildiradi.

Xulosa. Yuqoridagi fikr-mulohazalar asnosida shuni ta'kidlash lozimki, ijodkor badiiy obraz yaratayotganda hayotiy kuzatishlariga tayanib, ijodiy niyatidan kelib chiqib obraz psixologizmini shakllantiradi. Badiiy psixologizmni ro'yobga chiqarish uchun yozuvchi anglab qo'llagan barcha vositalarni, dialog, badiiy detal, komik nutq va boshqalarni muallif ***intensiyasiga mansub psixologizm*** sifatida tushunish mumkin. Asardagi obrazlarni psixologik tahlili muallif intensiyasi bilan bog'liq holatlarni yoritadi. Badiiy psixologizmni "ongli va estetik tamoyilni belgilovchi" [5., b.30.] hodisa sifatida idrok etish ma'lum muddat adabiyotshunoslikda hukmonron bo'lgan.

Biroq, san'at ham hayotning o'zi kabi murakkab. Psichoanalitik, psixiatrik tahlil metodlari ***muallif intensiyasiga mansub bo'lmagan psixologizmni ham*** o'rganishga imkoniyat beradi. Jumladan, muayyan badiiy obrazning u yoki bu psixotipga mansubligini balki muallif ijod

jarayonida rejalashtirmagan bo'lishi ehtimol, biroq adib obraz ruyihatiga izchil yondoshsa, albatta, kitobxon ko'z o'ngida aniq bir psixotip gavdalanadi.

Badiiy psixologizm va ijodkor munosabatlarda ***muallif intensiyasiga mansub va mansub bo'lмаган psixologizm aniqlandi***. An'anaviy psixologik tahlil ijodkor badiiy niyatiga oid ma'lumotlarni bersa, psixoanalitik va psixiatrik tahlil sa'atkorning intensiyasiga mansub bo'lмаган, anglanmagan holda yuzaga keladigan ruhiy tasvir hodisalarini o'rGANADI. Bunday tahlilllar natijasida asarning tub ma'no qatlamlari ochilishi bilan birgalikda muallifning ruhiy tasvir mahoratini baholashda keng imkoniyat paydo bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Выготский Л.С. Психология искусства. Ростов -на-Дону.: «Феникс», 1998, – 480 с.
2. Леонгард К. Акцентированные личности. К.: Выща шк. Головное изд-во, 1989.— 375 с.— ISBN 5-11-001299-7.
3. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. Таржимонлар: Уммат Тўйчиев, Маҳкам Маҳмуд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б. 43.
4. Белянин В. Введение в психиатрическое литературоведение. Verlag Otto Sagner, München. 1996. – 284 с.
5. Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 30.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº S/7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсуллияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).